



TOPSHIRIQQA ASOSLANGAN YONDASHUV: AHAMIYATGA MOLIK JIHATLAR

Baxronova Muxlisa Axmedovna

A.Avloniy nomidagi milliy tadqiqot instituti doktoranti

mukhlis0618@gmail.com

Kalit soʻzlar: *topshiriq, muloqot, topshiriqqa asoslangan yondashuv, chet tilini oʻqitish metodikasi.*

Kirish

80-yillarning boshlarida Bengal olimi Prabhu tomonidan ishlab chiqilgan, muloqotga asoslangan oʻqitish usuli (Communicative Approach –ing.) negizida paydo boʻlgan topshiriqqa asoslangan yondashuv (Task Based Approach – ing.) chet tillarini oʻrgatishda 90- yillarga kelib butun dunyoda ommalashdi va hozirga qadar bu yondashuvga boʻlgan qiziqish oshib bormoqda. Bu yondashuvni sinfda qoʻllaganda esa, oʻqituvchilar tomonidan turli munozarali vaziyatlarni ham keltirib chiqarayotganligi sir emas. Ikkinchi tilni oʻzlashtirish boʻyicha oʻtkazilgan tadqiqot natijalariga koʻra, lisoniy mahsuldorlikka erishishda, muloqotda, mazmun muhokamasida, maʼlumotni oʻzlashtirishda, shaklga urgʻu berganda ham topshiriqlar asosiy qism sifatida qaraladi¹. Bu oʻqitish usuli ommalashganiga bir necha oʻn yillar boʻlgan boʻlsa-da, til oʻrgatishda oʻqituvchilar tizimli yondashuv (Taqdimot-Mashgʻulot-Natija) bilan chegaralanib qolishmoqda, bu esa oʻz navbatida, tilni haqiqiy hayotiy vaziyatlardan ajralgan holda ‘sunʼiy’ oʻrganishga olib keladi, va bunda til shunchaki oʻrganiladi, yod olinadi, oʻzlashtirish esa alohida muammoligicha qolib ketaveradi. Shunda oʻquvchi haqiqiy hayotga mos kontentli va boy manbaga, oʻqituvchi va boshqa oʻquvchilar bilan muloqot qilish orqali mazmunli va samarali natijaga erishishga ehtiyoj sezadi. ‘Topshiriq’ aynan shu rolni amalga oshirishda asosiy rol oʻynaydi; Koʻp hollarda maʼlum bir maqsadga erishish uchun odamlar oʻzlashtirilgan tilni hayotda qoʻllaganda maʼlumotni tushunishga, erkin muloqot qilishga harakat qiladilar.

Topshiriqqa asoslangan til oʻqitish usulida esa oʻquvchilar shakldan koʻra mazmunga koʻproq eʼtibor qaratadilar. Yaʼni, ular qandaydir mavzuni oʻzlashtirish uchun ishlab chiqilgan mashqlarni bajarish oʻrniga aniq bir topshiriqni bajaradilar va shuning vositasida muloqotga kirishadilar. Oʻquvchilardan yozma yoki ogʻzaki tarzda fikrlarini erkin bayon etishlari talab etiladi, va shu natijaga erishish uchun harakat qilinadi. Avstraliyalik tilshunos olim Uillisning taʼkidlashicha, “topshiriqqa asoslangan oʻqitish usuli andozasida topshiriq va matnlar uygʻunligi yuzaga keladi va bu oʻquvchilarga buni mustaqil ravishda oʻzlari ishlata olish imkonini beradi”². Shunda oʻquvchilar maʼlum bir grammatikani ham induktiv usulda topshiriqlar asnosida oʻzlashtiradi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Topshiriqqa asoslangan oʻqitish usuli andozasini tahlil qilishdan oldin, oʻqituvchilarimiz muloqotga asoslangan topshiriqlar mazmuniga eʼtibor qaratishlari joiz.

¹ Task-based language education: from theory to practice / edited by Kris van den Branden p. 1

² Willis, Jane. (1996). A Framework for Task-based Learning. Oxford: Longman.



Uillis topshiriqqa quyidagicha ta'rif beradi: 'topshiriq - natijaga erishish uchun o'rganuvchilar tomonidan muloqot maqsadida o'rganilayotgan tildagi foydalaniladigan mashg'ulotlar'³. Bundan tashqari, ma'lum bir tilni o'zlashtirish uchun, agar bu o'quv dasturining bir qismi sifatida olingan bo'lsa, topshiriqqa asoslangan o'qitish usulidan foydalanish uchun ma'lum bir xususiyatlarni inobatga olish kerak. Birinchidan, berilayotgan topshiriqning murakkablik darajasi o'quvchining sinfi va yoshiga mos bo'lishi darkor. Ikkinchidan, chet tilini o'rgatishdan ko'zlanayotgan asosiy maqsad, berilayotgan topshiriq o'rganuvchilarning real hayotiy vaziyatlari bilan mos kelishi lozim (masalan, og'zaki hisobot taqdim etish, ma'lumot almashish, yo'nalish ko'rsatish kabi). Autentik matnlardan foydalanganda, uning murakkablik darajasini o'quvchining darajasiga moslash uchun soddalashtirilmasligini inobatga olish zarur. Uillis eslatib o'tganidek, o'qituvchining zimmasiga "o'rganuvchilarni rag'batlantira oladigan, lingvistik va intellektual darajasi mutanosib keladigan"⁴ kommunikativ mashg'ulotlarni tayyorlash yuklanadi. Bundan tashqari, o'quvchi berilgan topshiriqning mazmunini anglashi uchun bu topshiriq lisoniy shaklning ma'lum bir xususiyatini ham o'zida jamlashi kerak. Masalan, majhul nisbatning ishlatilishi, sifatning qiyosiy va orttirma darajalari, ergash gaplarning ishlatilishi shunday xususiyatlarga misol bo'lishi mumkin.

Kommunikativ vazifalar topshiriqqa asoslangan o'qitish andozasining turli bosqichlari orqali baholasa bo'ladigan va yaqqol ko'rinadigan natijaviylikka ega bo'lishi lozim. Bu natijaviylik ko'p hollarda juftliklarda yoki guruh bo'lib ishlaganda namoyon bo'ladi. Biroq o'qituvchi faqat shu bilan cheklanib qolmasdan, topshiriqni bajarish jarayoni bosqichi yakunlangandan so'ng, lisoniy muhokama jarayoni sifatida butun sinf bilan bahs-munozara o'tkazishi ham mumkin. Hozirgi davrda topshiriqlar va ularning turlari ko'p bo'lsada, vazifa qilib berilayotgan topshiriqda til ko'nikmalari integratsiyasiga ham e'tibor qaratish lozim. Skehan nazariyasiga ko'ra, topshiriq quyidagi mezonga amal qiladigan mashg'ulot: mazmun birlamchi ahamiyat kasb etadi; undagi mashg'ulotlarda natijaviylik baholanadi va hayotiy vaziyatlar bilan bog'lanadi. Til o'rganish darslari uchun topshiriqni dastur tuzuvchisi, o'qituvchi yoki o'quvchi tuzishi mumkin. U kim bo'lishidan qat'iy nazar topshiriqning tabiatidan boxabar bo'lishi, topshiriq talablari va potensial natijaviylikni hisobga olishi kerak⁵.

Muhokama va natijalar

Topshiriqli dars andozasida aniq bir maqsadga yo'naltirilgan ochiq topshiriqlar xilma-xilligi mavjud. o'quvchilar ma'lum bir grammatik tushunchaga alohida to'xtalib o'tishlariga hojat yo'q; aksincha, buni natijadan oldin mazmun orqali o'zlari ishlab chiqadilar. Til bilish darajasi yuqori bo'lgan guruhlarda o'quvchilar tilning ma'lum bir shakli va uning ishlatilish holati yuzasidan bilimni oshirishga qaratilgan lisoniy mashqlar

³ Willis, Jane. (1996). A Framework for Task-based Learning. Oxford: Longman, p.28

⁴ Willis, Jane. (1996). A Framework for Task-based Learning. Oxford: Longman, p.23

⁵ Baxronova, M. Chet tilini o'qitishda yangicha yondashuv: Topshiriqqa asoslangan o'qitish usuli, Tafakkur manzili, 2023, bb. 249-256



ham bajarishlari mumkin. Uillis chet tilini o'rgatishda topshiriqqa asoslangan yondashuv asnosida qo'llash mumkin bo'lgan bir qancha mashg'ulotlarni sanab o'tadi:

a. **Ro'yxat keltirish:** Bunda o'qituvchi o'quvchilarning ma'lum bir mavzudagi oldindan biladigan ma'lumotlarini yig'ib, foydalanish imkoniga ega bo'ladi. Bu mashg'ulotning natijasi o'laroq, o'qituvchi o'quvchilar tomonidan shakllantirilgan ro'yxatga ega bo'ladi;

b. **Darajalash:** Bunda o'quvchilar o'rganilayotgan til vositasida o'zlari bajaradigan vazifalarni ketma-ketlikda darajalaydilar (darajalash topshiriqqa qarab turli xil bo'lishi mumkin. Masalan, muhimligi, hajmi va h.k.)

c. **Taqqoslash va qarshi qo'yish:** mavzu doirasida, biror narsaning yaxshi yoki yomon tomonlarini taqqoslash mumkin. Shu mashg'ulotning natijasi sifatida sinf munozarasi ham uyushtirsa bo'ladi.

d. **Muammoni yechish mashg'ulotlari:** bu turdagi topshiriqda o'quvchilar berilgan muammoni hal qilish yo'llarini izlaydilar va yechim borasida o'z takliflarini bildiradilar. Masalan, yo'l-transport harakati ko'p bo'lgan shahar markazini o'ylang. Juftliklarda bu muammoga 3 ta yechim ko'rsating. Har bir yechimning yaxshi va yomon tomonlarini tahlil qiling.

e. **Hayotiy tajriba bilan o'rtoqlashish:** Bu topshiriq o'quvchilarning hayotiy lavhalari, o'zlari bilan sodir bo'lgan qiziqarli hikoyalar bilan boy bo'ladi. O'quvchilar o'z kechinmalari bilan o'rtoqlasha turib nutqiy ravonlikni o'stiradilar.

f. **Ijodiy topshiriqlar:** Kichik guruhlarda loyiha prezentatsiyalari shaklida namoyon bo'lishi mumkin bo'lgan bunday topshiriqlar yuqori darajadagi tayyorgarlik va til ko'nikmalari integratsiyasini talab qiladi.

Topshiriqqa asoslangan yondashuvda Uillis talqini bilan aytganda, lisoniy shakllarga oldindan buyurtma berilmaydi⁶. Bu tilshunosning fikricha, o'rganuvchi real hayotiy vaziyatda muloqot mazmunini ifodalay oladigan darajada tilni qo'llay olishi lozim.

Shu asnoda, topshiriqqa asoslangan o'qitish metodologiyasida grammatik tuzilmalarning ichki ayniyatga aylanishi natijasida ba'zi tanqidiy holatlar ham yuzaga keladi. D. Uillis va J. Uillislarning fikriga tayansak, muloqotga asoslangan yondashuvlarda, grammatikani o'rganish faqat o'rganilayotgan tilni o'zlashtirish maqsadida amalga oshiriladi. Topshiriqli o'qitishda ilk bosqichlarda lisoniy shakllarni to'g'ridan-to'g'ri o'rgatishga e'tibor qaratilmasa-da, til o'rganuvchilari turli xil idrokni o'stiruvchi mashg'ulotlar yordamida grammatik jihatlarga to'xtalib o'tishi zarur. o'quvchilarni autentik matnlar bilan ta'minlash tavsiya qilinadi, toki ularda shunga o'xshash xususiyatlar haqida so'rashga, uning ishlatilishini tahlil qilishga va qo'shimcha mashg'ulot qilishga imkoniyati bo'lsin.

Xulosa va takliflar

Chet tilini o'rganishdagi qiyinchiliklar va muammolar olimlarni til o'rgatish metodlari ustida muntazam izlanishga va yangidan-yangi usullarni targ'ib etishga undaydi. Xuddi

⁶ Carter, Ronald and Nunan, David (Eds.) (2001). Teaching English to Speakers of Other Languages. United Kingdom: Cambridge University Press, p.174



shunday, bengal olimi Prabhu ham topshiriqqa asoslangan o'qitish usulini o'z sinfida joriy qilib, keng ommaga tadbiq etganida ham, o'quvchilar asosiy e'tiborni vazifa qilib yuklatilgan topshiriqni bajarishga qaratishsa, samarali bo'lishini ta'kidlagan, chunki til o'rgatishdagi asosiy e'tibor - o'quvchini darsga jalb eta olish bo'ladi degan g'oyani ilgari surgan. Topshiriqqa asoslangan o'qitish usuli chet tilini va ikkinchi tilni o'qitishda samarali metod sifatida tan olinmoqda. Chunki asosiy maqsad - darsdan kutilayotgan natijada o'quvchiga ko'mak berishgina emas, balki hayot yo'llarida muammoli vaziyatdan mushkulliklarsiz chiqib ketishga, tanqidiy fikrlashga imkon berish hisoblanadi. Bunda o'qituvchining vazifasi muayyan topshiriqni bajarishga o'quvchini yo'naltirib turish bo'lsa, darsning markaziy bo'g'ini bo'lmish o'quvchining roli esa, sinfda va sinfdan tashqari muammolarni hal qilishda qat'iy ishonch bilan faol harakat qilishdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Baxronova M. *Chet tilini o'qitishda yangicha yondashuv: Topshiriqqa asoslangan o'qitish usuli*, Tafakkur manzili, 2023, yanvar, 1-son
2. Branden, van den Kris *Task-based language education: from theory to practice*, Cambridge University Press, 2006
3. Carter, Ronald and Nunan, David (Eds.) *Teaching English to Speakers of Other Languages*, 2001, United Kingdom, Cambridge University Press
4. Jalolov J, *Chet tili o'qitish metodikasi*, 2018, Toshkent
5. Nunan D. *Task-Based Language Teaching*, 2004, Cambridge, Cambridge University Press
6. ogli Melikuziev, A. L. (2022). HISTORICAL AND MODERN CLASSIFICATION OF PARALINGUISTICS. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(10), 126-128.
7. Prabhu *Second Language Pedagogy*, 1987, Oxford, Oxford University Press
8. Willis, Jane, *A Framework for Task-based Learning*. Oxford: Longman, 1996
9. <https://www.xabar.uz/uz/talim/shavkat-mirziyoyev-maktablarda-xorijiy-tillar-va-kasb-orgatis>